

AL-BUXORIY

Ilmiy jurnal

AL-BUKHARI

Scientific journal

AL-BUXORIY

Ilmiy jurnal

ISSN: 3030-3273

AL-BUKHARI

Scientific journal



ORIENTAL
UNIVERSITETI

AL-BUXORIY

Ilmiy jurnal

(uchinchi son)

Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qaroriga muvofiq tarix va filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga "Al-Buxoriy" ilmiy jurnali kiritilgan.

Toshkent – 2025

Bosh muharrir:

Farhod Maksudov, tarix fanlari doktori (DSc)

Bosh muharrir o‘rinbosari:

Malika Nasirova, filologiya fanlari nomzodi, professor

Mas’ul muharrir:

Govhar Rahmatova, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

“Al-Buxoriy”

ilmiy jurnalining tahrir hay’ati:

1. Azamat Ziyo t.f.d., akademik, professor – tahrir hay’ati a’zosi;
2. Zohidjon Islomov f.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;
3. Shorustam Shomusarov f.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;
4. Durдона Lutfullayeva f.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;
5. Komiljon Rahimov t.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;
6. Shamsiddin Kamoliddinov t.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;
7. Xolida Alimova f.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;
8. Aftondil Erkinov f.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;
9. Albert Burxanov t.f.d., akademik (Tatariston) – tahrir hay’ati a’zosi;
10. Samal Tuleubaeva f.f.d., professor (Qozog‘iston) – tahrir hay’ati a’zosi;
11. Sayfullo Mullodjanov t.f.d., professor (Tojikiston) – tahrir hay’ati a’zosi;
12. Zilola Xudoyberganova f.f.d., professor (Turkiya) – tahrir hay’ati a’zosi;
13. Akram Habibullayev t.f.d., professor (AQSh) – tahrir hay’ati a’zosi;
14. Ashirbek Mo‘minov t.f.d., dotsent (Qozog‘iston) – tahrir hay’ati a’zosi;
15. Murtazo Saidumarov f.f.n., professor (Saudiya Arabistoni) – tahrir hay’ati a’zosi.

MUNDARIJA

FILOLOGIYA

Sodiqov Qosimjon Pozilovich

Alisher Navoiyning uygʻur xatidagi ijodi 4

Turdiyev Jahongir Zafariddin oʻgʻli

Eski uygʻur xati va uning yozuv prinsiplari (“Meʼrojnom” asari misolida) 15

Karimova Shahlo Gʻaniyevna

Uygʻur-oʻzbek shoiri Nasrulloh Qori Farhatiy hayoti va faoliyati, adabiy merosi 25

Sotvoldiyev Sirojiddin Maxammaddin oʻgʻli

“Al-Musallas” lugʻatining arab leksikografiyasi rivojidadagi oʻrni 36

Tashmuxeimedova Dildora Aziz qizi

Xitoy va oʻzbek tillaridagi taqlid soʻzlarning morfologik tipologiyasi 45

Talipov Nodir Batirovich

Abdulqohir Jurjoniying “al-‘Awāmil al-miʼa” asarida taʼsir nazariyasi va uning arab sintaksisidagi ahamiyati 56

Ikromjonov Akmaljon Makhmudjonovich

Independent and Auxiliary Verbs in Arabic: Grammatical and Semantic Analysis ... 67

TARIX

Qoʻldashev Sherali Temiralievich

Qoʻlyozmalar diplomatiyasi: Amir Haydar buyurtma qilgan diniy asarlar taqdiri 76

Саипова Камола Давляталиевна

Октябрьская революция и её воздействие на этнодемографию Туркестана (1918-1924 гг.) 88

Pasilov Baxodir Abdullayevich

Markaziy Osiyoda oʻtkazilgan milliy-hududiy chegaralanish siyosatining chet el tarixshunosligidagi oʻrganilishi 100

Sattorov Nurbek Abdurazzoqovich

Qutchi urugʻining tarixi va etnogenezi masalasi 109

Norkulova Gulida Sodikovna

Ishtixon manzilgohidagi arxeologik tadqiqotlar: qadimgi ossuariylarning oʻrganilishi masalalari 116

Yunusov Komiljon Alimdjanovich

Muzeylarda boburiylar mavzusi yoritilishiga doir tarixiy-etnologik masalalar 124

Abdurasulov Akmal Oʻralovich

Totemizm va fetishizmning bugungi kun turmush tarzida aks etishi 134

**XITOIY VA O‘ZBEK TILLARIDAGI TAQLID SO‘ZLARING
MORFOLOGIK TIPOLOGIYASI**
**MORPHOLOGICAL TYPOLOGY OF IMITATIVE WORDS IN CHINESE
AND UZBEK LANGUAGES**
**МОРФОЛОГИЧЕСКАЯ ТИПОЛОГИЯ ПОДРАЖАТЕЛЬНЫХ СЛОВ В
КИТАЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ**

Tashmuxeimedova Dildora Aziz qizi

Oriental Universiteti

Tillar-2 kafedrasi katta o‘qituvchisi,

Tel.: +998 99 105-55-05

E-mail: Dildora_Azimova_98@mail.ru

Annotatsiya: Taqlid so‘zlar termin sifatida dunyo tilshunosligida bir necha ming yillik tarixga ega. Til nazariyalari qatoridan ham joy olgan taqlidlar har bir til lingvistikasida muhim o‘rin tutadi. Maqolada xitoy va o‘zbek tillarida taqlid so‘zlarning tilshunos olimlar tomonidan tadqiq qilinishi, taqlidlarning har ikki til grammatikasida tutgan o‘rni tahlil qilingan holda ularning qaysi turkumga xosligi borasida so‘z yuritiladi. Taqlid so‘zlarni tasniflashda so‘z turkumlarining ahamiyati va ularning turkumlanishi bilan bir qatorda muallif o‘zbek tilshunoslari S. Usmonov, R. Qo‘ng‘urov, G. Abdurahmonov, xitoy tilshunos olimlari Ding Shengshu, Ma Djen, Vang Li kabi bir necha tilshunos olimlar guruhi qarashlari va ular o‘rtasidagi farqlarni yoritib beradi. Taqlid so‘zlarning har ikki tilda qanday morfologik turkumga xosligi borasida fikr-mulohazalar berib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: *morfologiya, taqlid so‘zlar, undov so‘zlar, so‘z yasalishi, ot, sifat, son, fe‘l.*

Abstract: Onomatopoeic words, as a linguistic term, have a history of several millennia in world linguistics. They occupy an important place among linguistic theories and play a significant role in the linguistic systems of every language. This article analyzes the study of onomatopoeic words in Chinese and Uzbek languages, their role in the grammatical structure of both languages, and discusses to which part of speech they belong. In classifying onomatopoeic words, the author emphasizes the importance of parts of speech and their categorization, while also highlighting the perspectives and differences among linguistic scholars – Uzbek linguists S. Usmonov, R. Qo‘ng‘urov, G. Abdurahmonov, and Chinese linguists Ding Shengshu, Ma Zhen, and Wang Li. The paper also provides reflections on the morphological classification of onomatopoeic words in both languages.

Keywords: *morphology, onomatopoeic words, interjections, word formation, noun, adjective, numeral, verb.*

Аннотация: Звукоподражательные слова как термин имеют многовековую историю в мировой лингвистике. Они занимают важное место в теоретических направлениях языкознания и в каждой языковой системе. В данной статье рассматривается исследование звукоподражательных слов в китайском и узбекском языках, их роль в грамматической системе обоих языков, а также обсуждается вопрос об их принадлежности к определённым частям речи. При классификации звукоподражательных слов автор уделяет внимание значению частей речи и их распределению, а также освещает взгляды и различия между группами лингвистов – узбекских учёных С. Усманова, Р. Кунгурова, Г. Абдурахманова и китайских исследователей Дин Шэншу, Ма Чжэня, Ван Ли. Кроме того, приводятся рассуждения о морфологической принадлежности звуко-подражательных слов в обоих языках.

Ключевые слова: *морфология, звукоподражательные слова, междометия, словообразование, существительное, прилагательное, числительное, глагол.*

KIRISH

Tilning lingvistik tabiatiga ko'ra alohida guruhni tashkil etadigan va so'z turkumlari tizimida o'ziga xos mavqega ega bo'lgan taqlid so'zlar dunyo tilshunoslari tomonidan turli bahs-munozaralarga sabab bo'lib kelayotgan mavzulardan biri hisoblanadi. Taqlid so'zlarning termin sifatidagi etimologiyasi qadimgi yunon tilshunosligiga borib taqalishi haqida Lidell batafsil ma'lumot bergan (Liddell G., Robert Scott, 1940: 388). Asli lotin va yunon tillaridan kelib chiqqan Yevropa tillaridagi *onomatopoeia* so'zi nom berish ma'nosini ifodalaydi va olamdagi mavjud tovushlardan paydo bo'lgan so'zlar sifatida talqin qilinadi (Joseph P., 2000: 243).

Taqlidiy so'zlarga tarixiy kategoriya sifatida qaraladi. Uning paydo bo'la boshlashi jamiyatning odamlar o'z nutq organlarini ancha yaxshi boshqara olish qobiliyatiga ega bo'lgan davrlariga to'g'ri keladi. Qadim ibtidoiy davrlarda tasviriy so'zlar juda kam, hatto yo'q darajada bo'lgan. Bu borada B. M. Yunusaliyev quyidagicha fikr yuritadi: "O'rxun-Enasoy yodgorliklari leksikasida tovushga taqlid so'zlar hech qanday ifodasini topmagan" (Yunusaliyev B., 1959: 156). Tadqiqotchining bu fikrlariga R. Qo'ng'urov ham qo'shilgan. O'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab taqlidiy so'zlar masalasi olimlarimiz e'tiborini o'ziga torta boshladi. Ular mavzu ustida ma'lum darajada kuzatishlar olib borib, u yoki bu holatdagi o'z fikrlarini o'rta tashladilar. Jumladan, A.N. Kononov "O'zbek tili grammatikasi" (Kononov A., 1948: 121) asarida taqlidiy so'zlarga juda katta e'tibor bermaydi, uning grammatikasida

faqatgina tovushga taqlid soʻzlar tilga olinib, ular oʻzbek tilida soʻz yasashida ishtirok etuvchi asoslarning katta qismini tashkil etishi taʼkidlangan. Taqlidlarga alohida taʼrif berilmagan boʻlsa-da, ular undov soʻzlarning 3 semantik turidan biri sifatida koʻrsatilgan (Кўнфуров Р., 1948: 226). 1956-yili nashr qilingan “Hozirgi turk adabiy tilining grammatikasi” (Кононов А., 1956: 72) asarida ularni alohida soʻz turkumi bilan ajratadi. Demak, A. Kononov oldingi asarlarida tasviriy soʻzlarni undovlarning bir turi sifatida koʻrsatsa ham, 1956-yili ularni mustaqil soʻz turkumi bilan ajratish kerak, degan xulosaga keladi va “Hozirgi oʻzbek adabiy tili grammatikasi” asarida bu xulosasini qatʼiy bayon qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Taqlid soʻzlar tilshunoslikning qadimiy va murakkab sohalaridan biri boʻlib, ularning oʻrganilishi tarixan turli davrlarda har xil ilmiy yondashuvlar bilan amalga oshirilgan. Jahon tilshunosligida bu hodisa qadimgi yunon va lotin anʼanalariga borib taqaladi. Lidell va boshqa yevropalik olimlar *onomatopoeia* terminining etimologiyasi, yaʼni “tovushni nomlash” gʻoyasi orqali inson nutqining ilk bosqichlarida paydo boʻlgan taqlidiy tovushlarning tilning shakllanish jarayonidagi oʻrnini izohlaganlar.

Turkologiya doirasida taqlidiy soʻzlarni oʻrganishga bagʻishlangan ilk tadqiqotlar XX asrning 20-yillaridan boshlangan. Dastlab ular grammatik asarlarda undov soʻzlar tarkibida koʻrib chiqilgan boʻlsa-da, keyinchalik mustaqil soʻz turkumi sifatida alohida tahlil etila boshladi. Bu borada A. Kononov, A. Gʻulomov, U. Tursunov, J. Muxtorov, S. Mutallibov, S. Usmonov va boshqa oʻzbek tilshunoslari muhim ilmiy hissa qoʻshganlar.

A. Kononov oʻzining “Oʻzbek tili grammatikasi” asarida taqlidiy soʻzlarga keng toʻxtalmasa-da, ularni soʻz yasashida ishtirok etuvchi asoslardan biri sifatida tilga olgan. Keyinchalik u “Hozirgi turk adabiy tili grammatikasi” (1956) asarida taqlidiy soʻzlarni mustaqil soʻz turkumi sifatida eʼtirof etadi. A. Gʻulomov ham dastlab ularni undovlarning bir turi sifatida koʻrsatsa-da, keyingi ilmiy chiqishlarida taqlidiy soʻzlarni alohida turkum sifatida ajratish zarurligini taʼkidlagan.

Bu yoʻnalishdagi eng katta ilmiy yutuqlar R. Qoʻngʻurov nomi bilan bogʻliq. U oʻzbek tilida taqlidiy soʻzlarning fonetik, leksik, grammatik va stilistik xususiyatlarini chuqur oʻrganib, 1966-yilda “Oʻzbek tilida tasviriy soʻzlar” nomli monografiyasini nashr ettirdi. Muallif taqlidiy soʻzlarning til tizimidagi oʻrni, ularning soʻz yasashidagi roli, semantik turlari va stilistik funksiyalarini batafsil tahlil qilib berdi.

Xitoy tilshunosligida esa taqlidiy soʻzlarni oʻrganish XX asr boshlarida boshlangan. Ma Djen (马真), Ding Shengshu (丁声树), Zhu Dexi (朱德熙) kabi olimlar “象声词” yoki “拟声词” atamalarini qoʻllagan holda ularni xitoy tili morfologiyasining mustaqil qismi sifatida eʼtirof etganlar. Sing Fuyi (邢福义) esa

taqlid soʻzlarni maxsus “uchinchi tur” - yaʼni maxsus boʻlak (特殊成分) sifatida ajratadi.

Umuman olganda, mavjud adabiyotlar tahlili shuni koʻrsatadiki, taqlidiy soʻzlar ham oʻzbek, ham xitoy tilshunosligida uzoq muddat davomida undovlar yoki stilistik birliklar sifatida qaralgan. Ammo keyingi yillarda ularning morfologik mustaqilligi, grammatik shakllanishi va semantik turlari alohida tadqiqot mavzusiga aylangan. Mazkur maqola ana shu ikki til doirasidagi ilmiy qarashlarni qiyosiy tahlil etish va taqlid soʻzlarning morfologik tipologiyasini aniqlashga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda xitoy va oʻzbek tillaridagi taqlid soʻzlarning morfologik tuzilishi, grammatik shakllanishi hamda ularning turkumlanish xususiyatlari oʻrganildi. Ishning asosiy maqsadi – har ikki til tizimida taqlid soʻzlarning oʻrni, ularning shakl, maʼno va vazifaviy jihatdan farqli va oʻxshash tomonlarini aniqlashdan iboratdir. Tadqiqot jarayonida qiyosiy-tipologik, tavsifiy, morfologik hamda tarixiy-qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi.

Ishning nazariy asosi oʻzbek va xitoy tilshunosligi sohasida yaratilgan klassik ilmiy manbalarga tayangan holda shakllantirildi. Oʻzbek tilshunoslari A.Kononov, S.Mutallibov, U.Tursunov, R.Qoʻngʻurov, Gʻ.Abdurahmonov, Sh.Rahmatullayev kabi olimlarning ilmiy qarashlari bilan bir qatorda xitoy tilshunoslari Ma Djen, Ding Shengshu, Zhu Dexi, Vang Li, Lü Shusyan va Djang Djinglarning tadqiqotlari tahlil qilindi. Bu manbalar orqali taqlid soʻzlarning til tizimidagi oʻrni, grammatik xususiyatlari, semantik toifalanishi hamda stilistik vazifalari qiyosiy nuqtayi nazardan baholandi.

Tadqiqot materiali sifatida “Hozirgi oʻzbek adabiy tili”, “Hozirgi zamon oʻzbek tili: Morfologiya”, R. Qoʻngʻurovning “Oʻzbek tilida tasviriy soʻzlar” asari, shuningdek Ding Shengshu, Zhu Dexi, Vang Li, Lü Shusyan va Djang Djinglarning xitoy tili grammatikasiga oid asarlari tanlab olindi. Shuningdek, Liddell va Scottning “A Greek-English Lexicon” hamda Josephning “The American Heritage Dictionary of English Language” lugʻatlari terminologik asos sifatida qoʻllanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, unda xitoy va oʻzbek tillaridagi taqlid soʻzlar birinchi marta tizimli tarzda qiyosiy tahlil qilindi. Ularning morfologik tipologiyasi, soʻz yasaliş modellari, grammatik xususiyatlari va turkumlanishdagi oʻrni aniqlanib, har ikki til misolida taqlid soʻzlarning stilistik va semantik jihatlari oʻzaro taqqoslab oʻrganildi. Shu bilan birga, taqlid soʻzlarning mustaqil soʻz turkumi sifatida shakllanishi, ularning nutqdagi badiiy va ifodaviy vazifasi, grammatik tizimdagi funksional aloqadorligi boʻyicha nazariy xulosalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

N. Ashmarin o‘z asarlarida barcha tillardagi so‘zlar taqlidiy so‘zlardan kelib chiqqanligi fikrida qat’iy turadi. Uning fikricha, til boshlang‘ich davrlarda faqat mimemalardan tashkil topgan bo‘lib, keyingi davrlardagina undan nutqning artikulyatsiyalashgan tovushlari kelib chiqqan. Mimemalardan nutq tovushlari paydo bo‘lguncha til nutq tovushlarini va boshlang‘ich so‘zlarni tanlash va to‘plash davrini boshidan kechirgan deyiladi. N. Ashmarin hozirgi ko‘pgina narsalarning nomi taqlid bilan bog‘liq ekanligini aniqlay olmasligimizning sababi biz o‘sha narsalarning doimiy nomiga aylanib ketgan mimemalarning chiqib kelishi uchun o‘sha narsaning qaysi xususiyati sabab bo‘lganligini bilmasligimizdir, deb ko‘rsatadi (Ашмарин Н., 1948:1). Shuning uchun u tirik va jonsiz tabiatning taqlidiy so‘zlarda aksini topa oladigan hodisalarini qunt bilan o‘rganishni ta’kidlash bilan birga, tilning kelib chiqishini, uning avvalgi shakllarini topish uchun mimikalarni, jestlarni, tana-gavda harakatlarini va ular bilan bog‘langan tabiiy tovushlarni, qushlar hamda hayvonlar tilini o‘rganish va ularni hozirgi til bilan chog‘ishtirish kerakligi haqida gapiradi (Кўнғуров Р., 1948:7).

A.G‘ulomov o‘zining maktablar uchun tuzgan darsliklarida, “O‘zbek tili morfologiyasiga kirish” asarida taqlidiy so‘zlarni undovlarning bir turi sifatida ko‘rsatsa-da, 1957-yil avgustida maktablarda o‘zbek tilini o‘qitishni yaxshilash masalalari bo‘yicha o‘tkazilgan respublika konferensiyasida qilgan ma’ruzasida taqlidiy so‘zlarni ayrim tur qilib ajratish lozimligini alohida qayd qiladi. U.Tursunov va J.Muxtorov (Tursunov U., Muxtorov J., 1960: 260, S.Mutallibov (Mutallibov S., 1959: 239, S.Usmonovlar (Усманов С., 1952: 5) o‘z asarlarida tasviriy so‘zlarni undovlardan ajratib, alohida so‘z turkumi sifatida qaraydilar.

S.Mutallibov o‘zining uzoq yillik tajribalariga tayanib, 1956-yili “O‘qituvchilar gazetasi”da taqlid so‘zlar to‘g‘risida maqola e’lon qildi. Bu maqolada tovushga taqlid so‘zlar ham, obrazli so‘zlar ham tovushga *taqlid so‘zlar* termini bilan ataladi. U har ikki turkum taqlidlarni ham birgina taqlid so‘zlar termini ostida birlashtiradi. Ishda ancha chalkash fikrlar ham aytilgan. Ammo S. Mutallibov keyinroq nashr qilgan ocherklarida (Mutallibov S., 1959:239) bu masalaga aniqliklar kiritdi. Lekin har ikkala ishda ham tasviriy so‘zlarga oid ayrim misollarni izohlashda ayrim chalkashliklarga yo‘l qo‘yilgan. Masalan, ko‘proq tovushga taqlid so‘zlarni harakat va holat tasvirini bildiruvchi so‘zlar bilan aralashtirib yuborish hollari uchraydi. Uning maqolasida *yaltiroq, yalt-yult, lim-lim, g‘imir-g‘imir* so‘zlarini, ocherklarida esa *dikillamoq* (Mutallibov S., 1959: 212) kabi so‘zlarni tovushga taqlid deb atashi fikrimizning isbotidir. Keltirilgan so‘zlarni tovushga taqlid so‘z emas, holatga taqlid (obrazli) so‘zlar deb hisoblash kerak.

S.Mutallibov tovushga va holatga taqlid so‘zlarni birlashtirib, ularga quyidagicha ta’rif beradi: “Hayvonlar, jonivorlar, qush-qurtlar va odamlar, narsalar harakatidan

paydo bo'lgan tovushlarga shartlicha taqlid qilib yasalgan so'zlar tovushga *taqlidiy so'zlar* deb ataladi" (Mutallibov S., 1959:210).

"Hozirgi zamon o'zbek tili" asarida taqlidiy so'zlar "mimemalar" termini ostida, qisqa bo'lsa-da, alohida kategoriya sifatida ajratilib ko'rsatiladi. Ammo asarning ba'zi boblarida u undovlar sifatida qarayverilgan.

U. Tursunov va J.Muxtorovning "Hozirgi zamon o'zbek tili. Morfologiya" qo'llanmasida taqlidiy so'zlar qisqa bo'lsa-da, alohida kategoriya sifatida o'rganilgan. Mualliflar taqlidiy so'zlarga quyidagicha ta'rif beradilar: "Taqlidiy so'zlar shaxs, predmet va turli jonivorlar tovushining, harakat va holat obrazining tashqi olamdan olgan taqlidi – kopyasidir. Taqlidiy so'zlar turli xildagi ixtiyoriy yoki ixtiyorsiz tovush va qichqiriqlarni, harakat va holat obrazini bildiradi" (Tursunov U., Muxtorov J., 1960: 260).

Mualliflar taqlidiy so'zlarni ikkiga: tovushga taqlidiy so'zlar va obrazli so'zlarga bo'lib, ularga ta'rif beradilar va misollar bilan izohlaydilar. Demak, tabiatdagi turli hodisalarning, hayvon va insonlarning tovushlariga hamda harakat va holat obrazlariga nisbatan taqlidan hosil bo'lgan so'zlar taqlid so'zlar deb yuritiladi.

G'. Abdurahmonovning umumiy tahriri ostida chop etilgan, E. Begmatov tomonidan yozilgan "Hozirgi o'zbek adabiy tili" asarida taqlidiy so'zlar "Tasviriy so'zlar" termini ostida berilib, nisbatan kengroq ma'lumotlar berilgan. Unda tasviriy so'zlarga quyidagicha ta'rif beriladi: "Obyektiv olamdagi xilma-xil tovushlar hamda narsa va hodisalar harakatining obrazli holatlariga taqlid qilish orqali paydo bo'lgan so'zlar tasviriy so'zlar deb ataladi".

Biroq, keyinchalik muallif boshchiligida nashr etilgan "O'zbek tilining tarixiy grammatikasi. Fonetika. Morfologiya va sintaksis" (Abdurahmonov G', 2008: 75) kitobida taqlid so'z turkumlari qatorida taqlid so'zlarni sanamagan. Olim so'z turkumlarini mustaqil va yordamchi so'zlarga bo'ladi. Mustaqil so'zlar o'z o'rnida ism, fe'l va ravishga, ismlar esa ot, sifat, son va olmoshga bo'linadi. Yordamchi so'zlar qatorida ko'makchi, bog'lovchi, yuklama hamda shartli ravishda undov so'zlar ham mavjud bo'lgani holda, taqlidlarni sanamagan.

Yana bir o'zbek tilshunosi Shavkat Rahmatullayev ham taqlid so'zlarni tasvir birliklari nomi bilan grammatika tarkibiga kiritadi (Rahmatullayev Sh., 2006: 213). Olim atrofdagi turli tovushlarning, harakat va holat ko'rinishining til birliklari yordamida hosil bo'ladigan ramziy ifodasini tasviriy birlik sifatida ta'riflaydi. U taqlid va tasviriy so'z o'rtasida farq bor ekanligini ta'kidlaydi.

O'zbek tilshunosligida tasviriy (taqlidiy) so'zlarni o'rganish borasida R.Qo'ng'urovning xizmatlari katta.

R.Qo'ng'urovning tasviriy so'zlar borasidagi ilmiy kuzatishlari natijasida "O'zbek tilida taqlidiy so'zlar haqida ba'zi mulohazalar" (Кўнғуров Р., 1960: 12),

“O‘zbek adabiy tilida tasviriy so‘zlarning fonetik xususiyatlari haqida” (Кўһғғуров Р., 1961: 48), “O‘zbek tilida taqlidiy so‘zlarning o‘rganilishi haqida” (Кўһғғуров Р. 1961: 56), “Tasviriy so‘zlarning leksik xususiyatlari haqida”, “Hozirgi zamon o‘zbek tilida tasviriy so‘zlarning semantik klassifikatsiyasi” (Кўһғғуров Р., 1961: 89) kabi qator maqolalari yuzaga keldi. U bu boradagi, ya’ni, o‘zbek tilshunosligida tasviriy so‘zlarning umumiy tavsifi, qurilish, so‘z yasash tizimidagi o‘rni, fonetik, leksik, grammatik, sintaktik xususiyatlarini umumlashtirib, 1962-yilda nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi va 1966-yilda “O‘zbek tilida tasviriy so‘zlar” (1966: 154) nomli monografiyasi nashr etildi. Bu ish so‘nggida tasviriy so‘zlarning qisqacha lug‘ati ham berilgan.

R.Qo‘ng‘urov monografiyaning “Tasviriy so‘zlarning o‘rganilish tarixidan” deb nomlangan qismida turkologiyada tasviriy so‘zlarning o‘rganilishi haqida to‘xtalib, turkolog olimlarning tasviriy so‘zlar borasidagi qarashlariga u yoki bu darajada fikr bildiradi.

Xitoy olimlari va o‘zbek olimlarining taqlid so‘zlar borasidagi qarashlari va fikrlari o‘rtasida ba’zi o‘xshashliklar hamda farqlarni ko‘rish mumkin. Buni ko‘rsatib berish uchun ba’zi tilshunoslar fikrlarini ko‘rib chiqamiz.

Xitoy davlatida taqlid so‘zlar boshqa so‘z turkumlari yoki grammatik birliklarga nisbatan biroz kechroq tadqiq qilinishni boshlagan bo‘lsa ham 1 asrlik tadrijiy jarayonni bosib o‘tdi. Olimlar taqlidlarning xususiyatini ochib berishar ekan, endi ular oldidagi eng birinchi muammo – bu xitoy tilida uning xususiyatlarini ochib beruvchi atama topish bo‘lib qoldi. Turli tilshunos olimlar taqlidlarni ifodalovchi so‘zlarga turlicha nom berganlar. Xususan, Ma Djen (马真) o‘zining grammatikaga oid asarida turli ovozlarga taqlid qilgan so‘zlarni “拟声词” yoki “象声词” deb atalishini ta’kidlasada (马真, 2015:28), o‘zi “象声词” nomini ma’qul bilib, keyingi o‘rinlarda taqlidlarni shunday ataydi. Yana bir xitoy olimi Ding Shengshu (丁声树) taqlid so‘zlarga alohida to‘xtalib, ularning ta’rifini bermagan. Biroq, taqlid so‘zlarni xitoy tili morfologiyasidagi eng so‘nggi, 10-so‘z turkumi sifatida “象声词” nomi bilan e’tirof etgan (丁声树, 1999: 6). Xitoy tili nazariy grammatikasini umumiy tarzda yoritgan zabardast olimlardan biri Dju Desi (朱德熙) ham zamondoshi singari taqlidlarga alohida ta’rif bermagan bo‘lsa ham, ularni “拟声词” sifatida alohida so‘z turkumlari doirasida sanab o‘tadi (朱德熙, 1999: 50).

Vang Li “Taqlid so‘zlar atrofida turli tovushlarga taqlidan paydo bo‘ladi, ular yozuvda va tilda aynan tovushni chiqarib berishi shart emas. Tabiiy tovushga ishora qilsa va uni tinglovchi tushunsa bo‘lgani. Ana shunday tovushlarni grammatika emas,

balki uslubshunoslik o'rganadi, biroq uning ifodalanishi maxsus til shaklini talab qilganligi uchun grammatik jihatdan o'rganish kerak" (王力, 2011: 96) degan fikrlarni ilgari surib, taqlidlarni "拟声词" deb ataydi va 哈哈, 咕咕, 咕咚, 哇, 嘟嘟 kabilarni misol sifatida keltiradi.

Shu tariqa xitoy zabardast tilshunoslari taqlidlarni turkumga xoslash masalasida o'z qarashlariga asosan bir necha guruhga ajralib qoldilar. 吕叔湘, 张静, 廖序东 kabi olimlar taqlid so'zlarni sifat turkumiga kiritish masalasini ilgari surib, o'z asarlarida fikrlarini dalillashga harakat qilganlar. Lyuy Shusyang "Taqlid so'zlar shakli sifatlarining shakliga juda o'xshash, shuning uchun ham ularni sifatlarining kichik bir turi sifatida e'tirof etish asossiz bo'lolmaydi" (吕叔湘., 1996: 14). Djang Djing "Qadimgi va hozirgi zamon xitoy tilining qiyosiy grammatikasi" va "Hozirgi zamon xitoy tili yangi kitobi" asarlarida taqlidlarni 象声形容词 nomi bilan sifatlar qatoriga kiritadi va sifat so'z turkumi bilan taqlidlarning grammatik vazifasi va shakli bir xil ekanligini ta'kidlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Taqlidlar xitoy hamda o'zbek tillarida so'z sifatida ta'riflanadi hamda so'zning xususiyatlaridan kelib chiqib grammatik hamda stilistik o'rganiladi. Taqlid so'zlar qaysi tilda bo'lmasin, ma'no anglatadi hamda ba'zan gapning butun ma'nosi aynan taqlidda ko'rinadi. Taqlid so'z tushirib qolishi bilan gapda ma'no o'zgarishi yoki yetarli ma'no berilmasligi mumkin.

Taqlid so'zlarning atama sifatida tilshunoslikda ta'riflanishi har bir tilning tabiatidan kelib chiqqan holda amalga oshirilishi kerak deb hisoblaymiz. O'zbek tilidagi singari holat va obrazni ham ifodalagan so'zlar boshqa tillarda taqlidiy so'zlar doirasiga kiritilmasligi va boshqa grammatik funksiyani bajarishi mumkin. Yuqoridagilardan shunday xulosa qilish mumkinki, taqlidlar sifatida terminologiya va morfologiya doirasida o'rganilishi va tahlil qilinishi kerak.

Xitoy va o'zbek tillarida taqlid so'zlar inson, hayvon, narsa-buyum va tabiat – umumiy borliqdagi barcha tovushlarni hamda holatlarni aks ettiradi hamda o'zbek tilida taqlid so'zlar, xitoy tilida 拟声词 atamaları qo'llaniladi.

Taqlid so'zlarning morfologik tipologiyasi borasida har ikki tilda ham turli-tuman qarashlar mavjud. Xitoy tilida Ma Djenning taqlidlar alohida so'z turkumiga mansub degan fikriga qo'shilamiz. O'zbek tilida ham taqlidlar so'roqqa javob bo'lolmasligi, shu bilan birga, gap bo'lagi vazifasida kelishini asos bilib, alohida so'z turkumi doirasida o'rganilishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdurahmonov G'. (2008). O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti.
2. Ding S. (丁声树). (1999). Xiandai hanyu yufa jianghua. Lectures on Modern Chinese Grammar. – Beijing: Shangwu Yinshuguan.
3. Dju Desi, Dju Desi Wenji. (1999). – Pekin: Shangvu. – 397 p.
4. Joseph P. (2000). The American Heritage Dictionary of English Language. – Boston: Houghton Mifflin.
5. Karimov A. (2003). Xitoy tilidagi hisob so‘zlar (leksik-semantik, struktural va funksional tahlil). Monografiya. – Toshkent: Fan va texnologiyalar. – 120 b.
6. Ko‘ng‘urov R. (1960). O‘zbek tilida taqlidiy so‘zlar haqida ba’zi mulohazalar. Samarqand universiteti asarlari (Yangi seriya, 102-son). – Samarqand: Samarqand universiteti nashriyoti.
7. Ko‘ng‘urov R. (1961). O‘zbek adabiy tilida tasviriy so‘zlarning fonetik xususiyatlari haqida. O‘zbek tili va adabiyoti, 4-son. – B. 44-48.
8. Ko‘ng‘urov R. (1961). O‘zbek tilida taqlidiy so‘zlarning o‘rganilishi haqida. Adabiyotshunoslik va tilshunoslik masalalari, 2-kitob. – Toshkent: Fan.
9. Ko‘ng‘urov R. (1962). Tasviriy so‘zlarning leksik xususiyatlari haqida. O‘zbek tili va adabiyoti, 3-son. – B. 32–35.
10. Ko‘ng‘urov R. (1961). Hozirgi zamon o‘zbek tilida tasviriy so‘zlarning semantik klassifikatsiyasi. Adabiyotshunoslik va tilshunoslik masalalari, 3-kitob. – Toshkent: Fan.
11. Ko‘ng‘urov R. (1966). O‘zbek tilida tasviriy so‘zlar. – Toshkent: Fan.
12. Кононов А. Н. (1948). Грамматика узбекского языка. – Ташкент: АН УЗССР.
13. Кононов А. Н. (1956). Грамматика современного турецкого литературного языка. – Москва: АН СССР.
14. Liddell H. G., & Scott, R. (1940). A Greek-English Lexicon. – Oxford: Clarendon Press.
15. Lü S. (吕叔湘). (1996). Xiandai hanyu babaici [Eight Hundred Words of Modern Chinese]. – Beijing: Shangwu Yinshuguan.
16. Mustafayeva S. (2016). Xitoy tili tilshunoslik terminlari tizimining shakllanishi va taraqqiyoti. – Toshkent: Sharq. – 196 b.
17. Mutallibov S. (1959). Morfologiya va leksika tarixidan qisqacha ocherk. – Toshkent: O‘qituvchi.
18. Rahmatullayev Sh. (2006). Hozirgi adabiy o‘zbek tili (darslik). – Toshkent: Universitet.

19. Tursunov U., Muxtorov J. (1960). Hozirgi zamon o'zbek tili: Morfologiya. – Samarqand: O'zbekiston.
20. Усманов С. (1952). Междометия в современном узбекском языке. – Ташкент: Фан.
21. Vang L. (王力). (2011). Zhongguo xiandai yufa. Modern Chinese Grammar. – Beijing: Shangwu Yinshuguan.
22. Vang Li. Hozirgi zamon xitoy tili grammatikasi. (2011). – Pekin: Shangvu.
23. Юнусалиев Б. М. (1959). Киргизская лексикология. – Бишкек: Киргизучпедгиз.
24. Zhu D. (朱德熙). (1999). Zhu Dexi wenji / Collected Works of Zhu Dexi. – Beijing: Shangwu Yinshuguan.

REFERENCES:

1. Abdurahmonov G'. (2008). O'zbek tilining tarixiy grammatikasi. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. (In Uzbek)
2. Ding S. (丁声树). (1999). Xiandai hanyu yufa jianghua. Lectures on Modern Chinese Grammar. – Beijing: Shangwu Yinshuguan. (In Chinese)
3. Dju Desi. Dju Desi wenji. (1999). – Pekin: Shangvu. – 397 p. (In Chinese)
4. Joseph P. (2000). The American Heritage Dictionary of English Language. – Boston: Houghton Mifflin.
5. Karimov A. (2003). Xitoy tilidagi hisob so'zlar (leksik-semantik, struktural va funksinal tahlil). Monografiya. – Toshkent: Fan va texnologiyalar. – 120 b. (In Uzbek)
6. Ko'ng'urov R. (1960). O'zbek tilida taqlidiy so'zlar haqida ba'zi mulohazalar. Samarqand universiteti asarlari (Yangi seriya, 102-son). – Samarqand: Samarqand universiteti nashriyoti. (In Uzbek)
7. Ko'ng'urov R. (1961). O'zbek adabiy tilida tasviriy so'zlarning fonetik xususiyatlari haqida. O'zbek tili va adabiyoti, 4-son. – B. 44–48. (In Uzbek)
8. Ko'ng'urov R. (1961). O'zbek tilida taqlidiy so'zlarning o'rganilishi haqida. Adabiyotshunoslik va tilshunoslik masalalari, 2-kitob. – Toshkent: Fan. (In Uzbek)
9. Ko'ng'urov R. (1962). Tasviriy so'zlarning leksik xususiyatlari haqida. O'zbek tili va adabiyoti, 3-son. – B. 32–35. (In Uzbek)
10. Ko'ng'urov R. (1961). Hozirgi zamon o'zbek tilida tasviriy so'zlarning semantik klassifikatsiyasi. Adabiyotshunoslik va tilshunoslik masalalari, 3-kitob. – Toshkent: Fan. (In Uzbek)
11. Ko'ng'urov R. (1966). O'zbek tilida tasviriy so'zlar. – Toshkent: Fan. (In Uzbek)
12. Kononov A. N. (1948). Grammatika uzbekskogo yazika. – Tashkent: AN UzSSR. (In Russian)

13. Kononov A. N. (1956). Grammatika sovremennogo tureskogo literaturnogo yazika. – Moskva: AN SSSR. (In Russian)
14. Liddell H. G., & Scott, R. (1940). A Greek-English Lexicon. – Oxford: Clarendon Press.
15. Lü S. (吕叔湘). (1996). Xiandai hanyu babaici. Eight Hundred Words of Modern Chinese. – Beijing: Shangwu Yinshuguan. (In Chinese)
16. Mustafayeva S. (2016). Xitoy tili tilshunoslik terminlari tizimining shakllanishi va taraqqiyoti. – Toshkent: Sharq. – 196 b. (In Uzbek)
17. Mutallibov S. (1959). Morfologiya va leksika tarixidan qisqacha ocherk. – Toshkent: O‘qituvchi. (In Uzbek)
18. Rahmatullayev Sh. (2006). Hozirgi adabiy o‘zbek tili (darslik). – Toshkent: Universitet. (In Uzbek)
19. Tursunov U., Muxtorov, J. (1960). Hozirgi zamon o‘zbek tili: Morfologiya. Samarqand: O‘zbekiston. (In Uzbek)
20. Usmanov S. (1952). Mezhdometiya v sovremennom uzbekskom yazyke. – Tashkent: Fan. (In Russian)
21. Vang L. (王力). (2011). Zhongguo xiandai yufa / Modern Chinese Grammar. Beijing: Shangwu Yinshuguan. (In Chinese)
22. Vang Li. Hozirgi zamon xitoy tili grammatikasi. (2011). – Pekin: Shangvu. (In Chinese)
23. Yunusaliev B. M. (1959). Kirgizskaya leksikologiya. Bishkek: Kirgizuchpedgiz. (In Russian)
- Zhu D. (朱德熙). (1999). Zhu Dexi wenji / Collected Works of Zhu Dexi. Beijing: Shangwu Yinshuguan. (In Chinese)

Oriental universitetining “Al-Buxoriy” nomli jurnali

Jurnal Oliy o‘quv yurtlari hamda ilmiy-tadqiqot muassasalarining professor-o‘qituvchilari, doktorantlari, mustaqil tadqiqotchilari, magistrantlari, talabalari va keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan. Maqola muallifining fikri tahririyat fikrini ifodalamaydi.

AL-BUXORIY AL-BUKHARI

Bosh muharrir: **Farhod Maksudov**
Bosh muharrir o‘rinbosari: **Malika Nasirova**
Mas’ul muharrir: **Govhar Rahmatova**
Musahhah: **Gulida Norkulova**

Manzil: Toshkent shahri, Olmazor tumani, Norzatepa ko‘chasi, 52.
Telefon: +998 93 004-57-77. E-mail: al-buxoriy@orientaluniversity.uz

“AL-BUXORIY” jurnali
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining
№ 111741 raqamli guvohnomasi bilan
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Oriental universiteti Kengashining 2025-yil 29-avgust, 3-sonli yig‘ilish bayonnomasiga asosan nashrga ruxsat etildi.